# “+%!” aksiyasi: Qoidalar

1. “+%!” aksiyasi (matnda keyingi oʻrinlarda “Aksiya” deb yuritiladi) — bu Ucell abonentlari uchun keshbek olish imkonini beruvchi sodiqlik xizmati boʻlib, Ucell mobil ilovasi orqali Ucell abonent raqamlarining balansini toʻldirish holatlarida promo-balansga keshbek koʻrinishida bonus mablagʻlar (matnda keyingi oʻrinlarda — “Ballar”) tushiriladi. Olingan Ballar faqat Ucell aloqa xizmatlari haqini toʻlash uchun, shuningdek ushbu Qoidalarning 3- va 10-bandlariga muvofiq boshqa Ucell abonentlariga Ballarni oʻtkazish uchun ishlatilishi mumkin.

2. “+%!” aksiyasi Prepaid tizimi tarif rejalari va quyidagi shartnoma turlariga ega boʻlgan Postpaid tizimi jismoniy shaxs abonentlari uchun amal qiladi: “Corporate VIP PINFL”, “Corporate VIP Non-PINFL”, “Individual Postpaid PINFL”, “Individual Postpaid Non-PINFL”. Aksiyada faqat Ucell mobil ilovasida roʻyxatdan oʻtgan va raqami Faol holatda boʻlgan abonentlar qatnasha oladilar.

a. **Prepaid tizimi tarif rejalarining roʻyxati:**

Jadval №1:

| **Tarif nomi** | | |
|---|---|---|
| Marhamat | Katta Doimiy 70 | Active 45 |
| Minnatdormiz! | Katta Doimiy 100 | Active 70 |
| Yaxshi kayfiyat | Katta Doimiy 150 | COSMO Max |
| Zoʻr kayfiyat | TV Doimiy 70 | COSMO Plus |
| A’lo kayfiyat | TV Doimiy 90 | COSMO Start |
| Zoʻr kayfiyat + | TV Doimiy 120 | Ehtirom |
| A’lo kayfiyat + | TV Doimiy 180 | Foydali 35 |
| Special Plus | Bor 45 | Yaxshi kayfiyat Monthly+ |
| Special 70 | Bor 160 | Internet 60 |
| Special 100 | Uydagi 5G S | Katta Tantana |
| Start | Uydagi 5G M | Katta Tantana Full |
| Sof Start | Uydagi 5G L | Active 100 |
| Sof Plus | Bor 60 | Katta Doimiy 40 |
| Sof Extra | Bor 80 | Katta Doimiy 55 |
| Sof 50 | Bor 110 | TV Bor MAX |
| Sof 70 | TV Doimiy 55 | TV Bor Ultra |
| Sof 100 | Foydali 55 | Koʻproq! |
| Sof 150 | Foydali 45 | Ovoz |
| Premium 300 | Bor 50 | Ovoz 25 |
| Exclusive 500 | TV Bor | Shaxsiy 30 |
| Doimiy_Start | TV Bor Plus | Shaxsiy 55 |
| Doimiy Extra | Tourist 55 | Oddiy |
| Doimiy Ultra | Tourist 70 | Smartfon 35 |
| Doimiy Max | Tourist 100 | Smartfon 50 |
| Doimiy_100 | Tourist 40 | Special 100 BN |
| Doimiy_150 | Tourist 150 | Special 70 BN |
| Welcome | Yangi Start | Special Plus BN |
| Doimiy_Plus | Foydali Plus | Special Unlim |
| Start 35 | Uydagi Cheksiz S | Special Unlim Turbo |
| Foydali | Uydagi Cheksiz M | Student |
| Yangi Foydali | Uydagi Cheksiz L | Tantana |
| Doimiy Extra Plus | Chegarasiz 60 | Tantana_Full |
| Doimiy Ultra Plus | Chegarasiz 80 | Yangi Yil |

| | | |
|---|---|---|
| Buyursin | Qo’qonim | Shaxsiy 40 |
| Yangi Doimiy Max | Chegarasiz 150 | |

b. **Postpaid** tizimi tarif rejasiga mansublik holatida, ushbu Ilovaning 2-jadvalida keltirilgan “Corporate VIP PINFL”, “Corporate VIP Non-PINFL”, “Individual Postpaid PINFL”, “Individual Postpaid Non-PINFL” shartnoma turlariga va mos tarif rejalari roʻyxatiga muvofiqlik talab etiladi.

Jadval №2:

| **Tarif nomi** | |
|---|---|
| Maqsad | Maqsad Lite New |
| Maqsad 60 | Maqsad Max |
| Maqsad 80 | Maqsad Navo |
| Maqsad Lite | Maqsad Pro |

3. Agar abonent boshqa abonentga Aksiya doirasida toʻplangan Ballarni oʻtkazmoqchi boʻlsa, Ballarni qabul qila oladigan abonent albatta Ucell mobil ilovasida roʻyxatdan oʻtgan va raqami Faol holatda boʻlgan abonent boʻlishi kerak.

4. Keshbek Qoidalarning 1-bandida koʻrsatilgan shartlar bajarilganda avtomatik tarzda, balansni toʻldirish miqdorining 5% hajmida beriladi.

5. Keshbek Ucell mobil ilovasida promo-balans koʻrinishida aks ettiriladi.

6. Keshbekning hisob birligi — “Ball”, ekvivalenti: 1 Ball = 1 soʻm (UZS).

7. Ballar faqat Ucell abonent raqamlarining balansini Ucell mobil ilovasi orqali avtorizatsiya qilingan holatda, ilovaga biriktirilgan bank kartasi orqali amalga oshirilgan toʻldirishlar uchun beriladi.

Avtorizatsiya qilinmagan (roʻyxatdan oʻtmagan) holatda amalga oshirilgan, shuningdek Ucell mobil ilovasidan tashqari boshqa toʻlov ilovalari orqali bajarilgan toʻldirishlar uchun keshbek berilmaydi.

8. Keshbek virtual hisob boʻlib, Aksiya ishtirokchilariga naqdlashtirib berilmaydi, abonent shartnomasi bekor qilinganida yoki qayta rasmiylashtirilganida qaytarilmaydi.

9. Agar abonent Aksiya boʻyicha toʻplangan keshbekni boshqa Ucell abonentiga oʻtkazmoqchi boʻlsa, oʻz xohishiga koʻra istalgan miqdordagi keshbekni oʻtkazish mumkin. Buning uchun Ucell mobil ilovasidagi tegishli boʻlimda qabul qiluvchi abonentning Ucell raqamini va oʻtkaziladigan Ballar miqdorini koʻrsatishi kerak.

Boshqa Ucell abonentiga keshbek oʻtkazilishi bepul amalga oshiriladi va hech qanday qoʻshimcha komissiya undirilmaydi.

10. Boshqa Ucell abonentiga oʻtkazilgan keshbek abonent murojaatiga koʻra qaytarilmaydi yoki tuzatib berilmaydi.

11. Keshbek Ucell xizmatlari haqini toʻlash uchun ishlatilishi mumkin, ammo quyidagi xizmatlarga nisbatan qoʻllanmaydi:

**“+%!” Aksiyadagi Ballardan foydalanib toʻlov qilish mumkin boʻlmagan xizmatlar roʻyxati**

a) Obunalar: Yandex Plus, OVVA TV (kunlik, 30 kunlik), OVVA TV Plus (kunlik, 30 kunlik), OVVA KinoMAX (kunlik, 30 kunlik), Setanta Sport, START (kunlik, 30 kunlik), RIZANOVA (kunlik, 30 kunlik), Premier (kunlik, 30 kunlik), OVVA TV (Bepul sinov davri), OVVA TV Plus (Bepul sinov davri), OVVA KinoMax (Bepul sinov davri), Amediateka (kunlik, 30 kunlik), Megogo (kunlik, 30 kunlik), WINK (kunlik, 30 kunlik), Kinopoisk (kunlik, 30 kunlik), Viju (kunlik, 30 kunlik), Go Music (Ilk 30 kun bepul), Go Music, Barcha uchun ovozli pochta, Onlayn

TV+Xorijiy kinoklub (24 soat, 3 kunlik, 10 kunlik, oylik), Xorijiy kinoklub (24 soat, 3 kunlik, 10 kunlik, oylik), Onlayn TV (24 soat, 3 kunlik, 10 kunlik, oylik), O‘zbek kinoklubi (24 soat, 3 kunlik, 10 kunlik, oylik), TV kontentiga obuna (24 soatlik, 1 oylik), Amediateka kontentiga obuna (24 soatlik, 1 oylik), TV+ kontentiga obuna (24 soatlik, 1 oylik), Premium kontentiga obuna (24 soatlik, 1 oylik), Al-Chiroq aksiyasi doirasidagi internet-paketlari (100 MB, 150 MB, 200 MB, 250 MB, 300 MB, 350 MB, 400 MB, 450 MB, 500 MB, 550 MB, 600 MB, 650 MB, 700 MB, 750 MB, 800 MB, 850 MB, 900 MB, 950 MB, 1000 MB, 2000 MB, 5000 MB), Al-Chiroq aksiyasi doirasidagi daqiqa paketlari (30, 60, 120, 180, 1000, 2000, 3000), Al-Chiroq aksiyasi doirasidagi SMS-paketlar (50, 100, 200, 500), shuningdek, barcha abonentlar uchun Ovozli pochta xizmati.

b) Quyidagi qisqa raqamlar orqali taqdim etiladigan axborot-ko‘ngilochar xizmatlar:

| SMS ro‘yxati | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 6757 | 13679 | 7124 | 2260 | 9400 | 1220 | 12300 | 3297 | 1841 |
| 6758 | 34341 | 7126 | 3325 | 9700 | 2047 | S2021 | 3298 | 3300 |
| 0678 | 34349 | 7130 | 3345 | 2356 | 2048 | 2021 | 3441 | 4064 |
| 9910 | 35790 | 7131 | 3365 | 4004 | 3114 | 2020 | 3442 | 5005 |
| 9121 | 5678 | 7132 | 3385 | 7799 | 5023 | 2101 | 3445 | 5757 |
| 9122 | 5679 | 7133 | 4465 | 8800 | S8701 | S2121 | 3446 | 7375 |
| 9124 | 4412 | 7134 | 4470 | 7520 | S87101 | 2121 | 3447 | 8385 |
| S7889 | 4415 | 7135 | 4485 | 7521 | S8710 | 3131 | 1450 | 5712 |
| S852 | 4416 | 7136 | 4751 | 5869 | 8708 | S2591 | 1428 | 5812 |
| 5580 | 1965 | 7137 | 4752 | 6304 | 8709 | S2581 | 1429 | 6431 |
| 7889 | 7007 | 1901 | 1324 | 6305 | 5101 | 2581 | 1431 | 6434 |
| 852 | 8101 | 11313 | S5400 | 8091 | S4250 | 2591 | 1570 | 9880 |
| 22222 | 8102 | S7500 | 5400 | 9901 | 4250 | 9123 | 1587 | 9881 |
| 987 | 8103 | 5000 | 2600 | 7891 | 5743 | 6372 | 1200 | 9883 |
| 3050 | 8104 | 7500 | 3400 | 7892 | S77708 | 6373 | 1315 | 9884 |
| 5790 | 7119 | 7678 | 5800 | 6758 | 77708 | 6375 | 1810 | 213 |
| 6767 | 7120 | 8860 | 8500 | 4058 | 13131 | 6377 | 1812 | 7542 |
| 12357 | 7121 | 8861 | 9006 | 4061 | 751 | 6378 | 1830 | |
| 12358 | 7122 | 1160 | 9007 | 4063 | 831 | 3291 | 1831 | |
| 12379 | 7123 | 1165 | 9300 | 3003 | S12300 | 3294 | 1840 | |

| USSD ro‘yxati | IVR ro‘yxati | |
|---|---|---|
| *678# | 6757 | IVR 3355 |
| *565# | IVR 6009 | IVR 2002 |
| *880# | IVR 2233 | IVR 2525 |
| *799# | IVR 2255 | IVR 007 |

**Aksiya bo‘yicha keshbek-mablag‘lar uchun qoidalar va shartlar:**

12. Keshbek quyidagi holatlarda Ucell mobil ilovasida avtorizatsiya qilingan holda amalga oshirilgan to‘ldirishlar uchun beriladi:

a. o‘zining Ucell raqami balansini to‘ldirish;

b. boshqa Ucell abonenti raqami balansini to‘ldirish;

c. “Mening raqamlarim” funksiyasida boshqaruvda bo‘lgan raqamning balansini to‘ldirish (Ucell mobil ilovasiga biriktirilgan qo‘shimcha raqamlar, balansi va to‘lovlari foydalanuvchi tomonidan boshqariladi).

13. Keshbek quyidagilar uchun ham qoʻllanadi: mustaqil bajarilgan bir martalik toʻldirish, Avtotoʻlov xizmati orqali amalga oshirilgan toʻldirish, bank kartasi biriktirilganidan soʻng avtorizatsiya qilingan holda qoʻshimcha raqamni faollashtirish va ushbu karta orqali toʻlov qilish, MNP xizmati orqali Ucell tarmogʻiga oʻtish jarayonida avtorizatsiya qilingan holda toʻlovni amalga oshirish.

14. Keshbek qoldigʻi musbat yoki nol boʻlishi mumkin. Manfiy qoldiq boʻlishi mumkin emas.

15. Keshbek faqat balansni toʻldirish amaliyotini bajargan abonent – tashabbuskorning raqamiga biriktiriladi.

16. Har bir keshbek (ball)ning amal qilish muddati — 12 oy. Agar ushbu muddat davomida mablagʻ ishlatilmasa, u toʻliq bekor qilinadi. Bekor qilingan Ballar miqdori umumiy keshbek balansidan ayirib tashlanadi.

17. Bir abonent raqamiga oyiga maksimal keshbek limiti — 500 000 Ball.

18. Tizim boʻyicha standart ravishda, toʻlov vaqti kelganda yoki abonent toʻlovni boshlaganda, keshbekni promobalansdan yechish opsiyasi avtomatik tarzda yoqilgan boʻladi. Abonent ushbu opsiyani mustaqil boshqarishi mumkin va istalgan vaqtda (cheklovlarsiz):

- keshbekni tarif/xizmatlar qiymati boʻyicha keyingi toʻlovlarda avtomatik yechishni yoqishi;

- tarif/xizmatlar qiymati boʻyicha keyingi toʻlovlarda avtomatik yechishni oʻchirishi mumkin.

Boshqaruv faqat Ucell Mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi.

**Keshbekni boshqarish**

19. Keshbekni boshqarish faqat oʻz abonent raqami doirasida amal qiladi. Bunga quyidagilar kiradi:

keshbekdan avtomatik yechilishini yoqish/oʻchirish;

Ballarni boshqa abonent promo-balansiga oʻtkazish;

Ucell xizmatlari haqini Ballar orqali toʻlash (istisnolar 11-bandda koʻrsatilgan).

20. “Mening raqamlarim” funksiyasi doirasida boshqaruvda boʻlgan abonent raqamlarining keshbekini boshqarish va undan foydalanish mumkin emas (taqiqlanadi).

Boshqaruvda boʻlgan abonent raqamlarining keshbek-mablagʻlariga oid ruxsat etilgan maʼlumotlar quyidagilardan iborat:

— keshbek qoldigʻini / mavjudligini koʻrish;

— keshbek balansi boʻyicha tushum va chiqimlar tarixini koʻrish.

21. Agar abonentning keshbek balansi yetarli boʻlsa va u boshqa Ucell abonentiga (boshqaruvdagi raqamga yoki mustaqil abonentga) Ball oʻtkazmoqchi boʻlsa, oʻtkazish faqat promo-balansga amalga oshiriladi. Asosiy balans alohida hisob boʻlib, keshbek bilan bogʻliq emas.

**Aksiya boʻyicha Xabarnomalar**

22. Ucell Mobil ilovasida, Asosiy ekranidagi “Bildirishnomalar” boʻlimida, Aksiya doirasidagi keshbek boʻyicha har qanday harakat yuz berganda quyidagi turdagi bildirishnomalar aks ettiriladi:

- keshbek tushirilganligi haqida;

- yechib olinganligi haqida;

- oʻtkazma amalga oshirilganligi haqida;

- keshbekni hisoblashdagi xatolik haqida (masalan, keshbek limiti tugagan boʻlsa yoki boshqa sabablar tufayli keshbekni hisoblab boʻlmasa);

- muddati oʻtgan keshbekning bekor qilinganligi haqida;

- abonent tomonidan tarif/xizmatlar boʻyicha keyingi toʻlovlar uchun keshbek yechimini bloklash yoqilganligi haqida;

- abonent tomonidan bloklash oʻchirilib, keshbek yechishga ruxsat berilganligi haqida;

- keshbek olish limiti tugaganligi haqida.

**Avtotoʻlov boʻyicha qoidalar (Avtotoʻlov va keshbek)**

23. Agar ilgari yaratilgan «Tarif boʻyicha Avtotoʻlov» ishga tushsa va uning summasi abonentning joriy tarifi boʻyicha abonent toʻlovi qiymatini toʻliq qoplashga yetarli boʻlsa, Avtotoʻlov ushbu Avtotoʻlovning belgilangan shartlariga muvofiq amalga oshiriladi va yechilishi kerak boʻlgan toʻliq summa keshbek promobalansidan yechiladi (1 ball = 1 soʻm).

24. Agar keshbek tarif/xizmat qiymatini faqat qisman qoplasa, Avtotoʻlov belgilangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi va keshbek miqdori inobatga olingan holda tarif/xizmat boʻyicha toʻliq abonent toʻlovi summasi yechiladi.